

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

JOPAPS




JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

Volume I, Issue 8

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ



IMFAKTOR

AUGUST | 2023

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 8-СОҢ

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-8

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-8

ТОШКЕНТ - 2023

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 8 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-8>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ.

– педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

Таҳририят аъзолари:

Абдуҷаббарова М.

– педагогика фанлари номзоди, доцент

Абдурахимов Қ.

– психология фанлари бўйича фалсафа доктори

Джураев Д.

– педагогика фанлари доктори

Душанов Р.

– психология фанлари номзоди, доценти

Юсупова Хабиба Ирискуловна

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Лазиз Ярашович Олимов

– психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент

Элов Зиёдулло Сатторович

– психология ф.б.ф.д. (PhD)

Ганжиев Феруз Фурқатович

– психология ф.б.ф.д. (PhD)

Исмайлова Раъно Нураевна

– психология фанлари номзоди (PhD), доцент

Мусаева Мухаббат Эшбаевна

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент

Умаров Баҳром Норбоевич

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 2022 йил 22 декабрь куни **№ 054834**-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

SHADIYEVA Nigora Sharipovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

*“Aniq va tabiiy fanlar” fakulteti o‘quv ishlar bo‘yicha
dekan o‘rinbosari*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8241716>

DASTURIY TA’LIM VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING GEOGRAFIK OBYEKTLARNI 3D LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda ta’lim tizimida 3D-modellarni yirik yoki kichik detallarini yaratish uchun loyihlashdagi oddiy maketlar bilan birgalikda barcha sohalarda ham foydalanilmoqda. 3D modellashtirish ta’limda, globus, geografik jarayonlar, sanoat, arxitektura va interer dizayn modellarni ishlab chiqarish, natijalarga qisqa vaqtda yetishish, bajarilishning bir muncha aniqligiga erishish imkonini beruvchi innovatsion ishlanmalar va zamonaviy uskunalardan modellashtirish sohasida ham foydalanish imkonini beradi. Shunday qilib 3D-modellashtirish - bu obyektning 3 o‘lchamli modelini yaratilish jarayoni deb hisoblanadi va uning yordamida kerakli obyektning vizual, hajmli ko‘rinishi yaratiladi. Hosil qilingan obyektning tasvirini turli burchaklardan va turli yorug‘liklarda ko‘rish imkoniyati mavjud. 3D-modellashtirish dasturi yordamida ko‘proq real effektga erishish uchun obyektning 3 o‘lchamli modelini teksturalash (materialning vizual xususiyatlarini berish) harakatlantirish mumkin.

Kalit so‘zlar: model, geografiya fani, 3D model, zamonaviy axborot texnologiya, elektron ta’lim platformalari, o‘qitishning tizimlilik tamoyili, didaktik yondashuv.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ТРЕХМЕРНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ И МОДЕЛИРОВАНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ НА БАЗЕ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Сегодня 3D-модели используются в системе образования для создания крупных или мелких деталей, наряду с простыми макетами в дизайне и во всех областях. 3D-моделирование в образовании, земном шаре, географических процессах, промышленных, архитектурных и интерьерных моделях позволяет использовать инновационные разработки и современное оборудование в области моделирования, что позволяет в короткие сроки добиться результатов, добиться определенной точности исполнения. Таким образом, 3D-моделирование — это процесс создания 3D-модели объекта, и с ее помощью создается наглядный, трехмерный вид желаемого объекта. Есть возможность увидеть изображение созданного объекта под разными углами и при разном освещении. С помощью программного обеспечения для 3D-моделирования можно текстурировать 3D-модель объекта (придавать визуальные свойства материала) для достижения более реалистичного эффекта.

Ключевые слова: модель, география, 3D-модель, современные информационные технологии, электронные образовательные платформы, системный принцип обучения, дидактический подход.

MODEL OF DEVELOPMENT OF COMPETENCES OF STUDENTS IN THE FIELD OF THREE-DIMENSIONAL DESIGN AND MODELING OF GEOGRAPHICAL OBJECTS ON THE BASIS OF EDUCATIONAL SOFTWARE TOOLS

ANNOTATION

Today, 3D models are used in the education system to create large or small details, along with simple layouts in design and in all areas. 3D modeling in education, the globe, geographical processes, industrial, architectural and interior models allows the use of innovative developments and modern equipment in the field of modeling, which allows you to achieve results in a short time, to achieve a certain accuracy of execution. Thus, 3D modeling is the process of creating a 3D model of an object, and with its help, a visual, three-dimensional view of the desired object is created. It is possible to see the image of the created object from different angles and under different lighting conditions. With 3D modeling software, you can texture the 3D model of an object (give visual material properties) for a more realistic effect.

Key words: model, geography, 3D model, modern information technologies, electronic educational platforms, system principle of education, didactic approach

Ta'lim tizimi to'g'ri tashkil etish o'quvchi-talabalarni bilimni olish hamda o'zlashtirish, ta'lim muhitini samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim beruvchilarning ta'lim-tarbiya berish usullarini va o'qitish vositalarini ham o'zgartirishga olib keladi. O'quvchi-talabalarni o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadalik bilan kirib kelishi ularning material o'zlashtirishi, tezkor kerakli ma'lumotlarini olishlariga xizmat qiladi. 3D modeli asosida georafik obyekt yaratish ta'lim jarayonlarini raqamlashtirishda ijodiy fikrlovchi, ta'limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash va rejalashtirish, jumladan 3D texnologiyalaridan foydalanuvchi tarkibini shakllantirishni talab etadi.

3D - bu inglizcha so'z bo'lib 3 Dimensions, ya'ni, 3 o'lchamli so'zning qisqartmasi hisoblanadi [1, 2].

Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli komponentlarining mazmuni quyidagicha izohlanadi:


Maqsad komponent

Malaka talablarida: bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo'yiladigan ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, foydalanish, xizmat ko'rsatish, pedagogik faoliyat turlari nazarda tutilgan.

Model maqsadi: talabalarni, ya'ni (bo'lajak Geografiya fani o'qituvchilarini) innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida o'qitishdan iboratdir.

Modelda dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarning talabalarning innovatsion kasbiy faoliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan maqsad, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini didaktik yondashuvlar, tamoyillarga asoslanib innovatsion, kreativ fikrlovchi qilib shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik, tashkiliy-metodik, xususiyatlari o'rganildi.

Geografiya ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarining dasturiy o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarning geografik obyektlarini dasturlashtirish orqali talabalarning mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi, o'quv materiallarini g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, talabalarning innovatsion sifatlarini rivojlantiruvchi metod, shakl, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo'llanilishi, shuningdek pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini qamrab oladi [3, 4].



1-rasm. Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan model

Tashkiliy komponent

Modelda: talabalarni, ya'ni (bo'lajak Geografiya fani o'qituvchilarini) innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida o'qitish maqsadi orqali, bo'lajak Geografiya fani o'qituvchilarini o'quv-metodik va didaktik ta'minot asosida innovatsion yondashuvlar, dasturiy ta'lim vositalar va tamoyillarga asoslanib, tashkiliy-metodik, didaktik, xususiyatlari o'rganildi [5].


Elektron platformalar

E-learning (Electronic Learning - ingl. iboraning qisqartirilgani) – elektron o'qitish tizimi, elektron o'qitish, masofali o'qitish, kompyuterli o'qitish, tarmoqli o'qitish, virtual o'qitish, axborot va elektron texnologiyalarini qo'llab o'qitish kabi atamalarining sinonimidir.

YuNeSKO mutaxassislari tomonidan berilgan “E-Learning –Internet va multimedia yordamida o‘qitish” ta’rifi ham mavjud. Bu mazmunan juda ko‘p ma’noni anglatishi mumkin, jumladan: shaxsiy kompyuter, mobil telefon, DVD, audio-video, radiotelevizorlardan foydalanib elektron materiallar bilan mustaqil ishlash imkoniyatlarini yaratadi [6].

Uniwork tizimi “Ma’muriy boshqaruv”, “O‘quv jarayoni”, “Ilmiy faoliyat” va “Moliyaviy boshqaruv” axborot tizimlarini o‘z ichiga olgan Buxoro davlat universitetida ham zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotir. OTM strukturasi, fakultetlar va kafedralar, xodimlar va o‘qituvchilar tarkibi, talabalar kontingenti va ularning harakatiga oid axborotlarni boshqarish imkoniyatini beradi [5].

HEMIS axborot tizimi oliy ta’lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga mamuriy xodimlar, professor-o‘qituvchilar va talabalarga elektron ta’lim xizmatlarini taqdim etadi.



2-rasm. Elektron ta’lim platformalarining komponentlari

Moodle LMS muhitida o‘qitish va online rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o‘qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va ancha ko‘p bo‘lgan boshqa modullari mavjud [4, 5].

Mazmun komponent

Ta’lim shakllari – Auditoriyada: jamoaviy, guruhli, yakka tartibda: ta’limning maqsadi, vositasi, natijasi, o‘rni hamda ta’lim subyektlari ishtirokiga ko‘ra farq qiladigan dras soatlarining didaktik tavsifi. Dars, seminar mashg‘uloti, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘uloti, o‘yin, nazariy yoki amaliy mashg‘ulot dars shakli vositasida qayd etilib, tadqiq qilinadi va tavsiflanadi.

O‘quv-metodik va didaktik ta’minot - Geografiya ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha (Darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, o‘quv-uslubiy majmualar) tayyorlangan materiallardan maqsadli va samarali foydalanish.


“An attack of logical geographical ideas” (Mantiqiy geografik fikrlar hujumi) metodi

Mantiqiy geografik fikrlar hujumi ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishga asoslangan. Unda ishtirokchilar munozaralar, shu jumladan, iloji boricha ko‘proq eng fantastiklari qatorida yechimlarni ifodalashni taklif qiladi. Keyin, ifodalangan barcha umumiy fikrlarning ichidan, eng samaralisi amalda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatli fikr tanlab olinadi.

Mantiqiy geografik fikrlar hujumi ijodkorlikni rag‘batlantirishning eng mashhur usullaridan biridir.

Usulning mohiyati shundan iboratki, g‘oyalarni ilgari surish, taklif qilish jarayoni ularni tanqidiy baholash va tanlash jarayonidan ajratilgan. Bundan tashqari, har xil fantaziyani “yoqish” usullari, “sof insoniy” potentsialdan yaxshiroq foydalanish yechimlarni izlashga yo‘naltiradi. Masalan, u mutaxassis bo‘lmaganlarni jalb qilish uchun ishlatiladi va nodonlik tufayli “aqldan ozgan” takliflar berishi mumkin, bu esa o‘z navbatida “mutaxassislar” tasavvurini rag‘batlantirish.

Guruhning optimal tarkibi 6 tadan 12 kishigacha [4].



3-rasm. Elektron ta‘lim xizmatlari




4-rasm. Mantiqiy geografik fikrlar hujumi

Gipotezalar 10 ballik tizim bo'yicha baholanadi va taxminlarga ko'ra o'rtacha ball ko'rsatiladi.

“Algorithmization of geographic processes” (Geografik jarayonlarni algoritmlash) metodi

Bu metod tushunchalar, bildirilgan fikrlar o'rtasida bog'liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketmaketlikda to'g'ri ifodalashga yordam beruvchi ta'lim strategiyasidan iborat. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi bu metodni qo'llashda mashg'ulot mavzusini yorituvchi ma'lumotlarni to'g'ri hamda noto'g'ri tartibda, o'ziga xos chalkashlikda bayon etadi. Talabalarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto'g'ri ifodalangan ma'lumotlarni to'g'ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to'g'ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat. Bu metodni mashg'ulotda qo'llash quidagi quidagi sxemada kursatilgan tartibda amalga oshiriladi [3].



5-rasm. “Algorithmization of geographic processes” (Geografik jarayonlarni algoritmlash) metodini qo'llash sxemasi

Kasbiy sifatlar komponenti

Pedagogik-psixologik tayyorgarlik- Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarini tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik-psixologik tayyorgarlik - asosan, ta'lim psixologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakteri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos'tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa jixatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Hozirgi zamon pedagogik- psixologik tayyorgarlik talabalarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materiali mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega[2].

G'oyaviylik - Talabalarni g'oyaviylik, baynalmillilik, vatanparvarlik ruxida tarbiyalash; shaxsning faol pazitsiyasini tarkib toptirish; axborotlar oqimida o'ziga to'g'ri yo'nalish o'ralishga o'rgatish; milliy g'oya uchun kurash jarayonida uzining faol faoliyati bilan ishtirok etishga tayyorgarlik; mehnat faoliyatida g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashning ahamiyati osharadi. Talabalarni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda dunyoqarashni shakllantirish asosan darsda hal qilinadi.

Kasbiy moslashuvchanlik –“Inson - kasbiy muhit” tizimida muvozanatni o'rnatish jarayoni, bu mehnatning samaradorligi va sifati, insonning mehnat jarayoni, uning natijasi, o'zini professional sifatida, jamoadagi munosabatlardan qoniqishida namoyon bo'ladi. Mutaxassisni ishlab chiqarishga kiritish bosqichlarini ko'rib chiqishda birlamchi va ikkilamchi moslashuv ajratiladi. Birlamchi moslashish yosh xodimlarni (kasbiy tajribaga ega bo'lmagan) faoliyatga dastlabki kiritish paytida amalga oshiriladi. Ikkilamchi moslashuv - bu mutaxassisning yangi ish joyiga, boshqa jamoaga o'tishi, texnik, texnologik va tashkiliy yangiliklarga o'tishi natijasida yuzaga keladigan kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlarga moslashish jarayoni. Ikkilamchi moslashuvning quyidagi asosiy belgilari ajralib turadi: Yangi mehnat faoliyatini rivojlantirish oldingi kasbiy tajriba asosida amalga oshiriladi.

Kasbiy mahorat - Bu an'anaviy ko'nikmalar bo'lib, ular odatda ishni bajarish uchun ishlatiladigan qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bunday ko'nikmalar odatda aniqroq bo'ladi va ularni egallash va yaxshilash uchun faol mehnat talab qiladi.

Baholash mezonlari: talabalarning kreativligini baholash quyidagi mezonlar asosida olib borildi: ijtimoiylik (ijtimoiy onggi, munosabati va ta'lim tizimidagi islohotlardan xabardorligi), kommunikativlik (pedagogik muloqotga kirishuvchanligi, xorijiy tillarni egallanligi va pedagogik etikani amalda qo'llashi), intellektuallik (kasbiy salohiyat, dunyoqarash va o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash) va axborotlilik (axborot texnologiyalar bilan ishlash, ma'lumotlarni izlash, yig'ish va qayta ishlash).

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon hisoblanib, ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta'lim jarayoning modelini takomillashtirish, mustaqil ta'limni tashkil etishda dasturiy ta'lim vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari innovatsion kasbiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy asoslanib, mashg'ulotlarning ko'rgazmaliligi, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha hamda mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqi muhim o'rin tutadi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. N.Sh.Shadiyeva. Role of software educational tools in preparing future teacher's professional activity. // Actual Problems of modern science, education and training. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. November, 2022 11. ISSN2181-9750 "Zamonaviy fan ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari" Ilmiy jurnal. 21-28 b.
2. A.R.Jo'rayev, A.M.Shoyimov, N.Sh. Shadiyeva. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga dasturiy ta'lim vositalarning o'rni.// O'zMU xabarlar. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Jurnal №3/ 2022-yil. Toshkent sh.58-61.
3. Н.Ш.Шадиева. Учитывать, совершенствовать и развивать личностные качества учащихся на уроках географии. // Science and Education 3 (5), 1137-1143 Электронный журнал. 1137с. 2022 год.
4. N.Sh.Shadiyeva. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishga oid kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati.// Science and Education. Наука и образование Электронный Журнал. 1003 с. 2022 год.
5. N.Sh.Shadiyeva. Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasiю Elektron darslik. Buxoro. 2022 -yil.
6. I.Sh.Sadullayev, M.R.Jo'rayeva, N.Sh.Shadiyeva, D.P.Mirzoyev, A.A.Jumayev. Ta'limda axborot texnologiyalari. Elektron o'quv qo'llanma. Buxoro. 2022 y.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 8-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-8

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-8

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz